O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Menejment fakulteti dekani
D.ISMAILOV
2026-yil “30” iyun

ISHLAB CHIQARISH MENEJMENTI

FANINING O‘QUV DASTURI

Bakalavr (kunduzgi ta’lim shakli)

Bilim sohasi:	400000	Biznes, boshqaruv va huquq
Ta’lim sohasi:	410000	Biznes va boshqaruv
Ta’lim yo‘nalishi:	60410800	Menejment

Toshkent – 2026

Dekan (Tasdiqlangan)
D.ISMAILOV

Mazkur o‘quv dasturi Menejment fakulteti Kengashining 2026-yil “30” iyun dagi T-10-sonli yig‘ilish bayoni bilan ma’qullangan.

Mazkur o‘quv dasturi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining “Innovatsion menejment” kafedrasi tomonidan taqdim etilgan (kafedraning 2026-yil “26” iyun dagi 44-sonli yig‘ilish bayoni).

Tuzuvchilar:

YAXYAYEVA I.K. — TDIU “Innovatsion menejment” kafedrasi Dotsenti

Taqrizchilar:

M.G. Umarxodjayeva TDIU “Innovatsion menejment” kafedrasi professori, i.f.n.

S.N.Yuldashev – TTESI “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi dotsent (turdosh OTM).

Kafedra mudiri
(Tasdiqlangan)
B.URINOV

1. Fan ma'lumotlari

Fan/modul kodi PROMAN515	**O‘quv yili** 2026-2027	**Semestr** 5	**ECTS – Kreditlar** 5.00
Fan/modul turi Majburiy	**Ta’lim tili** O‘zbek	**O‘quv rejadagi tartib raqami**	**Haftadagi dars soatlari** 8

Fanning nomi	**Jami yuklama (soat)**	**Auditoriya mashg‘ulotlari jami – 60 soat, shundan:**			**Mustaqil ta’lim (soat)**	**Kurs ishi**
		Ma’ruza	**Amaliy**	**Lab-ya**		
Ishlab chiqarish menejmenti	150	30	30	0	90	-

2. Fanning mazmuni

Fanning maqsadi – Fanni o‘qitishdan maqsad – ishlab chiqarish menejmentining nazariy va amaliy asoslari, bozor iqtisodiyotining qonunlari va tamoyillarini mustaqil qo‘llay olish uchun zarur ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Kerakli usullar va natijalarning qo‘llanilishini yaxshiroq nazorat qilish uchun talabalardan keyingi darslarda muhokama qilinishi mumkin bo‘lgan amaliy va vaziyatli topshiriqlarni bajarish talab qilinadi. Shuningdek, darslik yoki boshqa manbalarni mustaqil o‘qish, olingan nazariy bilimlarga asoslanib tadqiqotlar o‘tkazish va olingan ilmiy natijalarga tayanib taqdimotlar o‘tkazish talab qilinadi.

Fanning vazifalari – Ushbu fanni muvaffaqiyatli yakunlagan talaba quyidagi kasbiy, nazariy va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladi: 1. Zamonaviy ishlab chiqarish tizimlari mohiyatini chuqur tushunadi va ularning bugungi raqobatbardosh iqtisodiy sharoitdagi ahamiyatini izohlay oladi. Talaba ishlab chiqarish menejmentining asosiy tushunchalari, tamoyillari va jarayonlari haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘ladi. 2. Murakkab ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish tizimlariga xos bo‘lgan ko‘plab o‘zaro bog‘liqliklarni samarali tahlil qilish va sintez qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantiradi. 3. Ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish va strategiya bo‘yicha qaror qabul qilishda yordam berish uchun ma‘lum miqdoriy usullardan foydalanishni taklif qiladigan ishlab chiqarish tizimi muhitidagi vaziyatlarni aniqlash qobiliyatiga ega bo‘lish. 4. Ishlab chiqarish autsorsing qilingan yoki korporativ bosh ofisdan uzoqda joylashgan hududlarda amalga oshirilgan taqdirda ham, operatsiyalar uchun boshqaruv mas'uliyatini tushunish. 5. Xomashyo va material zahiralarini aniqlash, nazorat qilish va hisob-kitob qilish usullarini o‘zlashtiradi, shuningdek, omborxona menejmenti, inventar darajasini belgilash va material oqimini samarali tashkil etish bo‘yicha amaliy bilimlarga ega bo‘ladi. 6. Fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiya qilish imkoniyatlarini tavsiflaydi, innovatsion texnologiyalar va raqamli transformatsiyaning ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sirini tahlil qiladi. 7. Ishlab chiqarish sarf-harajatlarini aniqlash va iqtisodiy samaradorlikni baholash bo‘yicha asosiy metodikalarni qo‘llay oladi, shu jumladan, asosiy, qo‘shimcha va umumzavod xarajatlarini farqlab, rentabellikni hisoblaydi.6. Mahsulot turlarini va miqdorini aniqlashni o‘rganadi. 8. Mahsulot turlari va ishlab chiqarish hajmini

belgilash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladi, ishlab chiqarish quvvati, yuklama darajasi va buyurtmalarni boshqarish mexanizmlarini tushunadi. 9. Ishlab chiqarishga oid amaliy mashg‘ulot va o‘yinlar (simulyatsiyalar) orqali strategik qaror qabul qilish jarayonlarini o‘zlashtiradi, bu orqali ishlab chiqarishdagi o‘zgaruvchanlik, risklar va samaradorlik omillarini interaktiv tarzda baholaydi. 10. Ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshirish strategiyalarini ishlab chiqadi, resurslardan oqilona foydalanish, isrofgarchilikni kamaytirish, vaqtni tejash va sifatni boshqarish orqali natijadorlikni oshirish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

3. <u>Fanni o‘zlashtirish uchun zarur boshlang‘ich bilimlar</u>	
1.	Ushbu fanni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun talabalar “Menejment”, “Operatsion menejment”, “Sifat menejmenti” fani bo‘yicha olingan bilimlari yetarli bo‘lishi kerak.

4. <u>Ta’lim natijalari (TN)</u>	
Kasbiy kompetensiyalar:	
TN1	Ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish tamoyillarini biladi
TN2	Korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish va muvofiqlashtirish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi
TN3	Ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni tashkil eta oladi
TN4	Ishlab chiqarish quvvatlarini aniqlash va ulardan foydalanish samaradorligini baholay oladi
TN5	Ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilish va ularni kamaytirish yo‘llarini aniqlay oladi
TN6	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi va assortimentini rejalashtira oladi
TN7	Ishlab chiqarish jarayonlarining iqtisodiy va tashkiliy samaradorligini baholay oladi.
TN8	Mahsulot sifatini boshqarish va nazorat qilish usullaridan foydalana oladi
TN9	Mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi
TN10	Ishlab chiqarishdagi muammolarni aniqlash, tahlil qilish va tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qila oladi
TN11	Zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari va raqamli boshqaruv vositalaridan foydalanishning asosiy yo‘nalishlarini tushunadi
TN12	Korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini iqtisodiy jihatdan baholay oladi
Ko‘nikmalar:	
TN13	Ishlab chiqarish jarayonining asosiy bosqichlarini aniqlash
TN14	Ishlab chiqarish rejasini tuzish va uning bajarilishini tashkil etish
TN15	Ishlab chiqarish hajmini hisoblash va rejalashtirish

TN16	Korxonaning ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasini aniqlash va baholash
TN17	Mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarni rejalashtirish
TN18	Ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblash, tahlil qilish va baholash
TN19	Mahsulot tannarxini aniqlash va uning tarkibini tahlil qilish
TN20	Mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlarini hisoblash va tahlil qilish
TN21	Ishlab chiqarish samaradorligi ko‘rsatkichlarini aniqlash va baholash
TN22	Ishlab chiqarishdagi yo‘qotishlar va muammolarni aniqlash hamda ularning sabablarini tahlil qilish

5. Fan mazmuni va mashg‘ulotlar shakli:		**Soat**
Ma’ruza (M)		**30**
M1	**“Ishlab chiqarish menejmenti” kursining mazmuni, maqsadi va vazifalari.** 1. Ishlab chiqarish menejmenti tushunchasi. 2. Ishlab chiqarish menejmentining rivojlanish tarixi. 3. Ishlab chiqarish ishlab chiqarish tizimida “kirish”dan to “chiqishga”qadar samarali boshqaruv. 5. Harajatlarni minimallashtirish va foydani maksimalashtirishga erishishning asosiy yo‘nalishlari.	2
M2	**Tashkilotni boshqarish tizimining tuzilishi va mazmuni.** 1. Tashkilotni boshqarish tizimi tuzilmasi. 2.Tashkilotni boshqarish tizimini tashqi va ichki muxit. 3.Tashkilotni boshqarish tizimining ilmiy asoslanganligi. 4.Tashkilotni boshqarish tizimining maqsadli tizimchalari. 5.Tashkilotni boshqarish tizimining boshqariladigan va boshqaradigan tizimchalari.	2
M3	**Ishlab chiqarishni rejalashtirish va bashorat qilish.** 1. Rejalashtirish jarayonlarini mohiyati va tamoyillari. 2.Rejalar sifatiga talablar. Rejalashtirish bo‘yicha ishlarni tashkil qilish. 3.Tashkilotning strategik rejalarni ishlab chiqarishni mazmuni va tartibi. 4.Strategik rejalashtirishda SWOT tahlil. 5.Tezkor kalendar rejalashtirishning xususiyatlari. 6. Ishlab chiqarishni bashorat qilish	2
M4	**Ishlab chiqarishda loyihalarni boshqarish.** 1. Loyiha konsepsiyasi va texnik-iqtisodiy asoslash 2. Ishlab chiqarish loyihalarini strategik rejalashtirish va resurslarni optimallashtirish 3.Ishlab chiqarishda loyiha sifatini nazorat qilish va standartlashtirish tizimlari 4.Loyihalarni boshqarishda raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlar 5.Ishlab chiqarish loyihalarida risklarni boshqarish va iqtisodiy samaradorlikni baholash	2
M5	**Ishlab chiqarish korxonalarida resurslar, materiallar va zahiralarni boshqarish.** 1. Resurs ta`minoti strategiyasining asoslari. 2. Ishlab chiqarish korxonalarida materiallar oqimi 3.Ishlab chiqarishda zahira turlari 4.Ishlab chiqarishda zahiralarni boshqarish 5.Resurslardan foydalanish samaradorligi tahlili 6.Resurs ta`minotini boshqarishda logistika funktsiyalari.	2

5. Fan mazmuni va mashg‘ulotlar shakli:		Soat
M6	**Ishlab chiqarish jarayonlarini loyihalash va tashkil etish.** 1. Ishlab chiqarish turlari. 2.Ishlab chiqarishni tashkil etishning bosqichlar. 3.Asosiy ishlab chiqarishni tashkil qilish vazifalari va uslublari. 4.Potok chizig‘i va uning elementlari. 5.Ishlab chiqarishni tashkiliy-texnologik tayyorlash.	2
M7	**Ishlab chiqarish korxonasining innovatsion faoliyati asoslari.** 1. Yangiliklar, innovatsiyalarning mohiyati, tasnifi va kodlashtirilishi. 2. Innovatsion faoliyatning asosiy yo‘nalishlari 3. Innovatsion jarayonning bosqichlari 4. Korxonaning innovatsion salohiyati. 5. Innovatsion faoliyatning asosiy ko‘rsatkichlari va samaradorligi.	2
M8	**Ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish.** 1. Mahsulot sifat ko‘rsatkichlarining mohiyati va tizimi. 2. Sifatni boshqarishning asosiy bosqichlari 3. Xalqaro sifat tizimlari (ISO) 4. Sifatni boshqarishning zamonaviy usullari 5. Sifatni boshqarishning iqtisodiy samarasi. 6.Mahsulot va sifati tizimini sertifikatlash.	2
M9	**Ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot va xizmat dizayni.** 1. Tovar va xizmatlarni tanlash 2.Yangi mahsulot yaratish yoki mahsulotni rivojlantirish 3. Xizmat dizayni 4.Mahsulot hujjatlari 5.Iste’molchi talablari asosida mahsulot yaratish.	2
M10	**Ishlab chiqarish xarajatlari, tannarx va qiymatni boshqarish.** 1. Ishlab chiqarishda harajatlar turlari. 2.Harajatlarning turkumlanishi. 3.Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi harajatlarni guruhlash. 4.Foyda va uni maksimallashtirish. 5.Rentabellik va uni oshirish yo‘llari. 6.Mahsulot tannarxini pasaytirishning manbalari va omillari.	4
M11	**Ishlab chiqarish korxonalarida texnik xizmat ko‘rsatish, ishonchlilik va ishlab chiqarish uzluksizligi.** 1. Texnik xizmat ko‘rsatishning strategik ahamiyati uskunalar ishonchliligi 2.Profilaktik xizmat 3.Ta’mirlash qobiliyati 4.Ishlab chiqarishdagi uzilishlarni kamaytirish.	2
M12	**Ishlab chiqarish korxonalarini joylashuvi va ishlab chiqarish quvvati.** 1. Korxona joylashuvining strategik ahamiyati 2.Korxona joylashuvining bozorga, yetkazib beruvchiga va mehnat resurslariga yaqinlik 3.Joylashuvni baholash usullari 4.Ishlab chiqarish maydonini joylashtirish 5.Ishlab chiqarish quvvati.	2
M13	**Ishlab chiqarish korxonalarida ish haqini tashkil etish va mehnatga haq to‘lash tizimi.** 1. Ish haqining iqtisodiy tavsifi. 2.Ish haqining ijtimoiy-iqtisodiy funktsiyalari. 3. Tarif tizimi va uning asosiy unsurlari. 4.Mehnatga haq to‘lash tizimini tartibga soluvchi me`yoriy hujjatlar. 5.Mehnat resurslari va mehnat haqi jamg‘armasidan foydalanishni nazorat qilish.	2
M14	**Ilg‘or ishlab chiqarish tizimlari va raqamli texnologiyalar.** 1. Sanoat 4.0 va ilg‘or ishlab chiqarish tizimlarining konseptual asoslari. 2.Kiber-fizik tizimlar (CPS) va narsalar interneti (IoT) texnologiyalarining integratsiyasi. 3.Ishlab chiqarishda "Raqamli egizaklar" (Digital Twins) va modellashtirishning ahamiyati. 4.Additiv texnologiyalar (3D bosma) va robototexnika majmualarini optimallashtirish. 5.Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish xavfsizligi va sun’iy intellekt (AI) istiqbollari.	2

5. Fan mazmuni va mashg‘ulotlar shakli:		Soat
Amaliy mashg‘ulot (A)		**30**
A1	**“Ishlab chiqarish menejmenti” kursining mazmuni, maqsadi va vazifalari.** 1. Ishlab chiqarish menejmenti tushunchasi. 2. Ishlab chiqarish menejmentining rivojlanish tarixi. 3. Ishlab chiqarish ishlab chiqarish tizimida “kirish”dan to “chiqishga”qadar samarali boshqaruv. 5. Harajatlarni minimallashtirish va foydani maksimalashtirishga erishishning asosiy yo‘nalishlari.	2
A2	**Tashkilotni boshqarish tizimining tuzilishi va mazmuni.** 1. Tashkilotni boshqarish tizimi tuzilmasi. 2.Tashkilotni boshqarish tizimini tashqi va ichki muxit. 3.Tashkilotni boshqarish tizimining ilmiy asoslanganligi. 4.Tashkilotni boshqarish tizimining maqsadli tizimchalari. 5.Tashkilotni boshqarish tizimining boshqariladigan va boshqaradigan tizimchalari.	2
A3	**Ishlab chiqarishni rejalashtirish va bashorat qilish.** 1. Rejalashtirish jarayonlarini mohiyati va tamoyillari. 2.Rejalar sifatiga talablar. Rejalashtirish bo‘yicha ishlarni tashkil qilish. 3.Tashkilotning strategik rejalarni ishlab chiqarishni mazmuni va tartibi. 4.Strategik rejalashtirishda SWOT tahlil. 5.Tezkor kalendar rejalashtirishning xususiyatlari. 6. Ishlab chiqarishni bashorat qilish	2
A4	**Ishlab chiqarishda loyihalarni boshqarish.** 1. Loyiha konsepsiyasi va texnik-iqtisodiy asoslash 2. Ishlab chiqarish loyihalarini strategik rejalashtirish va resurslarni optimallashtirish 3.Ishlab chiqarishda loyiha sifatini nazorat qilish va standartlashtirish tizimlari 4.Loyihalarni boshqarishda raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlar 5.Ishlab chiqarish loyihalarida risklarni boshqarish va iqtisodiy samaradorlikni baholash	2
A5	**Ishlab chiqarish korxonalarida resurslar, materiallar va zahiralarni boshqarish.** 1. Resurs ta`minoti strategiyasining asoslari. 2. Ishlab chiqarish korxonalarida materiallar oqimi 3.Ishlab chiqarishda zahira turlari 4.Ishlab chiqarishda zahiralarni boshqarish 5.Resurslardan foydalanish samaradorligi tahlili 6.Resurs ta`minotini boshqarishda logistika funktsiyalari.	2
A6	**Ishlab chiqarish jarayonlarini loyihalash va tashkil etish.** 1. Ishlab chiqarish turlari. 2.Ishlab chiqarishni tashkil etishning bosqichlar. 3.Asosiy ishlab chiqarishni tashkil qilish vazifalari va uslublari. 4.Potok chizig‘i va uning elementlari. 5.Ishlab chiqarishni tashkiliy-texnologik tayyorlash.	2
A7	**Ishlab chiqarish korxonasining innovatsion faoliyati asoslari.** 1. Yangiliklar, innovatsiyalarning mohiyati, tasnifi va kodlashtirilishi. 2. Innovatsion faoliyatning asosiy yo‘nalishlari 3. Innovatsion jarayonning bosqichlari 4. Korxonaning innovatsion salohiyati. 5. Innovatsion faoliyatning asosiy ko‘rsatkichlari va samaradorligi.	2
A8	**Ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish.** 1. Mahsulot sifat ko‘rsatkichlarining mohiyati va tizimi. 2. Sifatni boshqarishning asosiy bosqichlari 3. Xalqaro sifat tizimlari (ISO) 4. Sifatni boshqarishning zamonaviy usullari 5. Sifatni boshqarishning iqtisodiy samarasi. 6.Mahsulot va sifati tizimini sertifikatlash.	2

5. Fan mazmuni va mashg‘ulotlar shakli:		Soat
A9	**Ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot va xizmat dizayni.** 1. Tovar va xizmatlarni tanlash 2.Yangi mahsulot yaratish yoki mahsulotni rivojlantirish 3. Xizmat dizayni 4.Mahsulot hujjatlari 5.Iste’molchi talablari asosida mahsulot yaratish.	2
A10	**Ishlab chiqarish xarajatlari, tannarx va qiymatni boshqarish.** 1. Ishlab chiqarishda harajatlar turlari. 2.Harajatlarning turkumlanishi. 3.Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi harajatlarni guruhlash. 4.Foyda va uni maksimallashtirish. 5.Rentabellik va uni oshirish yo‘llari. 6.Mahsulot tannarxini pasaytirishning manbalari va omillari.	4
A11	**Ishlab chiqarish korxonalarida texnik xizmat ko‘rsatish, ishonchlilik va ishlab chiqarish uzluksizligi.** 1. Texnik xizmat ko‘rsatishning strategik ahamiyati uskunalar ishonchliligi 2.Profilaktik xizmat 3.Ta’mirlash qobiliyati 4.Ishlab chiqarishdagi uzilishlarni kamaytirish.	2
A12	**Ishlab chiqarish korxonalarini joylashuvi va ishlab chiqarish quvvati.** 1. Korxona joylashuvining strategik ahamiyati 2.Korxona joylashuvining bozorga, yetkazib beruvchiga va mehnat resurslariga yaqinlik 3.Joylashuvni baholash usullari 4.Ishlab chiqarish maydonini joylashtirish 5.Ishlab chiqarish quvvati.	2
A13	**Ishlab chiqarish korxonalarida ish haqini tashkil etish va mehnatga haq to‘lash tizimi.** 1. Ish haqining iqtisodiy tavsifi. 2.Ish haqining ijtimoiy-iqtisodiy funktsiyalari. 3. Tarif tizimi va uning asosiy unsurlari. 4.Mehnatga haq to‘lash tizimini tartibga soluvchi me`yoriy hujjatlar. 5.Mehnat resurslari va mehnat haqi jamg‘armasidan foydalanishni nazorat qilish.	2
A14	**Ilg‘or ishlab chiqarish tizimlari va raqamli texnologiyalar.** 1. Sanoat 4.0 va ilg‘or ishlab chiqarish tizimlarining konseptual asoslari. 2.Kiber-fizik tizimlar (CPS) va narsalar interneti (IoT) texnologiyalarining integratsiyasi. 3.Ishlab chiqarishda "Raqamli egizaklar" (Digital Twins) va modellashtirishning ahamiyati. 4.Additiv texnologiyalar (3D bosma) va robototexnika majmualarini optimallashtirish. 5.Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish xavfsizligi va sun’iy intellekt (AI) istiqbollari.	2

6. Mustaqil ta’lim topshiriqlari

№	Mavzu / Topshiriq nomi	Soat
1	Raqamli transformatsiya sharoitida ishlab chiqarish menejmenti tizimining adaptiv rivojlanish modelini o‘rganish va tahlil qilish.	6
2	Ishlab chiqarish tizimlarida sun’iy intellekt asosida qaror qabul qilish algoritmlarini o‘rganish va ishlab chiqish.	6
3	Korxona boshqaruv tizimining sinergetik samaradorligini baholashning kompleks modelini tahlil qilish va baholash.	6

№	Mavzu / Topshiriq nomi	Soat
4	Ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishda ko‘p mezonli qaror qabul qilish usullarini o‘rganish va qo‘llash imkoniyatlarini tahlil qilish.	6
5	Tashkilot boshqaruvida noaniqlik va risk sharoitida strategik rejalashtirish metodologiyasini o‘rganish va tahlil qilish.	8
6	Ishlab chiqarish menejmentida dinamik tizimlar nazariyasini qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganish va baholash.	8
7	Resurslardan foydalanish samaradorligini ekonometrik modellar asosida prognozlash va tahlil qilish.	8
8	Logistika zanjirlarida integratsiyalashgan boshqaruv tizimining samaradorlikka ta’sirini o‘rganish va tahlil qilish.	8
9	Ishlab chiqarish jarayonlarida innovatsion faoliyatni boshqarishning kompleks tizimini o‘rganish va takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqish.	6
10	Mahsulot sifatini boshqarishda sun’iy intellekt va katta ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish va tahlil qilish.	8
11	Total Quality Management (TQM) tizimini raqamli iqtisodiyot sharoitida transformatsiya qilish jarayonlarini o‘rganish va baholash.	6
12	Ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarishda zamonaviy analitik platformalardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish.	6
13	Tannarxni shakllantirishda yashirin xarajatlarni aniqlash va ularni boshqarish metodlarini o‘rganish.	4
14	Korxona rentabelligini oshirishda innovatsion-investitsion strategiyalarni modellashtirish va prognozlash.	4
	Jami:	**90**

Izoh: *Fan (modul) yuzasidan talabalar bajaradigan mustaqil ish topshiriqlari variativ tavsifga ega bo‘lishi lozim. Mustaqil ish topshiriqlarining 1/3 qismi kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash (kooperativlik)ga mo‘ljallangan.*

7. Ta’lim texnologiyalari va metodlari

ma’ruzalar; real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish va xulosalash; vaziyatli topshiriqlar (keys-stadi)ni yechish; esse, tezis va maqolalar yozish; blits-so‘rov; kichik guruhlarda ishlash; taqdimotlar qilish; loyiha ishlarini bajarish va himoya qilish; simulyatsion va interaktiv metodlar; korxona va tashkilotlarda kuzatuvchi sifatida ishtirok etish orqali real menejment jarayonlarini o‘rganish.

8. Talabalar tomonidan kreditlarni olish uchun talablar

Ushbu fan (modul) bo‘yicha talabalar bilimini baholash semestr davomida o‘quv materiallarini (testlar va yozma ishlar) bajarishga asoslanadi. Dars davomida talabalar 100 ballik tizimda baholanadi. Shundan, talabaning dars mashg‘ulotlaridagi ishtiroki, mustaqil ishlar va joriy natijalar uchun 20 ball, oraliq nazorat uchun 30 ball, yakuniy nazorat uchun 50 ball beriladi.

TALABALAR BILIMINI BAHOLASH TARTIBI

Reytingni baholash turlari	Maks. ball	Bajariladigan topshiriqlar	Topshiriqlarni bajarilish muddati
Joriy nazorat, shundan	**20**	**O‘quv jarayonining jadvali bo‘yicha**	
Dars mashg‘ulotlaridagi ishtiroki	10	O‘quv jarayonining jadvali bo‘yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarda og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, keys stadi, kazus yoki fabula vaziyatli topshiriqlar, loyiha, kurs ishi, uy vazifalarini bajarishi	Fanning dars jadvalidagi auditoriya vaqtiga mos holda
Mustaqil ta'lim, shundan	10	talabalar mustaqil ishlarini ikki yo‘nalishda – auditoriyada va auditoriyadan tashqarida tashkil etiladi.	
1-mustaqil ish	5	mustaqil ta’lim mavzularidan biri bo‘yicha 1000–1200 so‘zli esse yoki tahliliy maqola yozish	O‘quv jarayoni grafigiga muvofiq dars mashg‘ulotlarining oxirgi haftasigacha
2-mustaqil ish	5	loyiha ishi tayyorlash (infografika, slaydlar yoki video-prezentatsiya shaklida) va himoya qilish	O‘quv jarayoni grafigiga muvofiq dars mashg‘ulotlarining oxirgi haftasigacha
Oraliq nazorat	**30**	**Taqdimot shaklida (kichik guruhlarda ishlash)**	**O‘quv jarayoni grafigiga muvofiq oraliq nazorat haftasida HEMIS axborot tizimi orqali yoki bevosita o‘quv auditoriyasida tashkil etiladi**

Reytingni baholash turlari	Maks. ball	Bajariladigan topshiriqlar	Topshiriqlarni bajarilish muddati
Yakuniy nazorat	**50**	**Test**	**O‘quv jarayoni grafigiga muvofiq yakuniy nazorat haftalarida**
Jami	**100**		

Talabaning semestr davomida fan bo‘yicha to‘plagan umumiy balli har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq quyidagi formula orqali hisoblanadi:

YaB= JN+ON+YaN

bu yerda: JN – joriy nazorat; ON – oraliq nazorat; YaN – yakuniy nazorat.

Eslatma: dars mashg‘ulotlaridagi ishtiroki, joriy nazorat va oraliq nazoratlar uchun ajratilgan jami ballar (50 ball) ning kamida 60 foizini to‘play olmagan talabaning yakuniy nazoratga kirishiga ruxsat berilmaydi. Shuningdek, yakuniy nazorat uchun ajratilgan jami 50 ballning kamida 60 foizini to‘play olmagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

9. Talabalar bilimini baholash mezoni

a) 5 (a’lo) baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

– fanning mohiyati va mazmunini to‘liq yorita olsa;

– tizimli menejment mavzularini bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylikka amal qilib, xatolik va chalkashliklarga yo‘l qo‘ymasa;

– nazariy bilimlarni turli boshqaruv vaziyatlarida qo‘llay olsa;

– berilgan savollarga aniq va lo‘nda javob bera olsa;

– mustaqil topshiriqlar va amaliy ko‘nikmalarni to‘liq o‘zlashtirgan bo‘lsa;

– tizimli yondashish va uzviylikka amal qilsa;

b) 4 (yaxshi) baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

– fanning mohiyati va mazmunini tushungan, mavzularni bayon qilishda jiddiy chalkashliklarga yo‘l qo‘ymasa;

– fanning amaliy ahamiyatini tushungan bo‘lsa;

– berilgan vazifa va topshiriqlarni o‘quv dasturi doirasida bajargan bo‘lsa;

– savollarga to‘g‘ri javob bera olsa va mustaqil topshiriqlarni to‘liq bajargan bo‘lsa;

– amaliy ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga harakat qilgan bo‘lsa;

d) 3 (qoniqarli) baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

– fan haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lsa;

– mavzularni tor doirada yoritib, ayrim chalkashliklarga yo‘l qo‘ysa;

– mustaqil topshiriqlarni bajargan, biroq bayoni ravon bo‘lmasa;

– savollarga mujmal javob bersa;

e) quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho bilan baholanishi mumkin:

– mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rmagan bo‘lsa;

– fan bo‘yicha hech qanday tasavvurga ega bo‘lmasa;

– mustaqil topshiriqlarni bajarmagan bo‘lsa;

– matnlarni boshqalardan ko‘chirib olganligi sezilib tursa;

– fanga doir savollarga javob bera olmasa;

Eslatma: Talabalar bilimini baholash 100 ballik tizimda amalga oshiriladi: joriy nazorat – 20 ball, oraliq nazorat – 30 ball, yakuniy nazorat – 50 ball. Talabaning umumiy bali quyidagi formula orqali hisoblanadi: YaB = JN + ON + YaN (JN – joriy nazorat, ON – oraliq nazorat, YaN – yakuniy nazorat). Joriy va oraliq nazoratlar uchun ajratilgan ballarning hamda yakuniy nazorat balining kamida 60 foizini to‘play olmagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

10. Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:	
1.	I.K.Yaxyayeva Ishlab chiqarish menejmenti. [Darslik] – Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2023. – 316 b.
2.	Г.Ш. Джураева Производсвенный менеджмент. [O‘quv qo‘llanma] – Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа, 2023. – 320 b.
3.	Uzair Khaleeq uz Zaman, Ali Siadat Aamer Handbook of Manufacturing Systems and Design. [Darslik] – First edition, 2024. – 323 b.
Qo‘shimcha adabiyotlar:	
1.	N.Q.Yo‘ldoshev, I.K.Yaxyayeva “Operatsion menejment”. Darslik. T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” 2022. - 244 b.
2.	I.K. Yaxyayeva “Sanoatda tejamkor strategiyalar asosida resurs samaradorligi va innovatsion rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish”. Monografiya./“JAHONA NASHR” nashriyoti, 2026-y. – 124 b.
3.	Kadirxodjayeva N.R. Sanoat korxonalarida innovatsion strategik boshqaruv. Monografiya./«JAHONA NASHR» nashriyoti, 2026-y
4.	Г.Ш.Джураева. Монография. Совершенствование механизма системы управления человеческими ресурсами на предприятиях строительной отрасли. Издательство “JAHON NASHR”, 2026г. - 172 стр
5.	С.Я. Гродзенский. Управление качеством 3-е издение. Москва 2021
6.	Tursunova Z.R. “Integratsiyalashgan mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan biznes tuzilmalarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish”. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy

	darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya
Internet manbalari:	
1.	www.gov.uz
2.	www.lex.uz
3.	http://ima.uz
4.	https://mininnovation.uz
5.	https://www.imv.uz/sf
6.	https://stat.uz/uz
7.	https://new.openinfo.uz/

11. Akademik talablar

O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro munosabat samimiy va beg‘araz bo‘lishi lozim, talaba mustaqil bajargan topshiriqlarni belgilangan tartibda elektron pochta yoki o‘quv platforma orqali yuboradi va javobni ham shu tartibda oladi. Belgilangan muddatda bajarilmagan topshiriqlar qayta qabul qilinmaydi. O‘qituvchi talaba tomonidan bajarilgan topshiriqlarni antiplagiat dasturida tekshiradi, originallik darajasi 70 foizdan past bo‘lgan ishlar baholash uchun qabul qilinmaydi. Talabaning bajargan topshirig‘i 2 martagacha antiplagiat dasturida tekshirilishiga imkoniyat beriladi, natija talab darajasida bo‘lmasa ish qabul qilinmaydi.

12. Dasturning boshqa ta'lim shakllari uchun tadbiq etilishi

Mazkur o‘quv dasturi kunduzgi ta'lim shakli uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, uning asosida tegishlicha sirtqi, kechki va masofaviy ta'lim shakli uchun ishchi o‘quv dasturlari ishlab chiqiladi.